KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 1 (531) 2025-YIL, 11-YANVAR

MUROJAATLAR DOIMO E'TIBORDA

Mamlakatimizda aholi bilan doimo muloqot qilish, fuqarolarning qonuniy talablarini bajarish, so'rov va takliflarini inobatga olish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shahrixon tumanidagi Xalq qabulxonasida murojaat qilib kelgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

2024-yil 31-dekabr holatiga tuman Xalq qabulxonasiga jami 731 nafar jismoniy va yuridik shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo'lib, ularni 465 tasi yozma, 266 tasi og'zaki tartibdagi murojaatlarni tashkil etadi. Murojaatlarning taalluqligiga ko'ra hal etish uchun 403 tasi hududdagi tashkilotlarga, 62 tasi yuqori tashkilotga yuborilgan va 266 tasi tuman Xalq qabulxonasida hal etish uchun qoldirilgan. Umumiy murojaatlarni qayd etilishi o'tgan yilning 12 oyiga nisbatan 15.2 foiz kamayganligi kuzatildi.

Qabul qilingan murojaatlarni taalluqligiga ko'ra davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlariga yuborilib, ularning ijrosi nazoratga olinib, natijalari bo'yicha mualliflarga hamda tuman Xalq qabulxonasiga berilgan javob xatlari monitoring olib borilib o'rganilib kelinmoqda.

Hududlardan ishga joylashtirish, sog'liqni saqlash, uy-joy, yer ajratish, aliment pullarini olish, kredit olish masalalariga oid, gaz, elektr, suv va issiqlik ta'minoti bilan bog'liq muammolar hamon o'zining dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda.

Tuman Xalq qabulxonasi tomonidan 2024-yilning 31-dekabr holatiga jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari bilan ishlashda aniqlangan qonun buzilishlari, ijroni ta'minlamagan shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha 2 ta ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma, 15 ta taqdimnoma, 13 ta taklif, 5 ta axborot hamda 22 ta ko'rsatma kiritilgan.

Shuningdek, Xalq qabulxonasi tomonidan 10 marotaba targ'ibot ishlari amalga oshirilib, 20 ta boshqa tadbirlar o'tkazilgan, 33 marotaba sayyor qabullar tashkil etilib ularda 1250 nafar fuqarolar ishtirok etgan.

Tuman Xalq qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlardan 90,8 foizi qanoatlantirilgan, shundan ijobiy hal etilganlar 550 ta, huquqiy maslahat va ma'lumot berish orqali hal qilinganlar 114 ta, 2 ta murojaat qoldiqda qolgan.

Fuqarolarni muammolarini joyida bartaraf etish, qonuniy huquqlarini ta'minlash, sansalorchilik va ovoragarchiliklarni oldini olish "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan Prezidentimiz tomonidan aytilgan tamoyilni amalda qaror topishi uchun tuman Xalq qabulxonasi tomonidan jadval asosida sektor rahbarlari tomonidan joylarda har haftada ommaviy sayyor qabullar o'tkazilishi tashkil etilgan.

O'tgan 12 oy davomida 4 ta sektor rahbarlari tomonidan jami bo'lib 226 ta sayyor qabullar o'tkazildi va ushbu tadbirlarda kelib tushgan 2145 ta murojaatlardan 84,2 foizi qanoatlantirilgan, qolganlariga huquqiy va tegishli tushuntirishlar berilgan.

Shuningdek, tuman Xalq qabulxonasi tomonidan tumandagi 79 ta MFYlar kesimida sayyor qabullar tashkil etilgan hamda tumanda mavjud bo'lgan 4 sektor rahbarlari tomonidan har hafta ommaviy qabullar o'tkazilib joylarda fuqarolarning murojaatlari o'rganilib, aksariyati joyida bartaraf etilmoqda. O'tkazilayotgan barcha ommaviy sayyor qabullar tuman Xalq qabulxonasi tomonidan nazoratga olingan bo'lib faoliyati muvofiqlashtirilib borilmoqda.

Q.MUSAEV,
Shahrixon tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri.





SARHISOB

Andijon viloyati prokuraturasi organlari tomonidan 2024 yilda ommaviy va sayyor qabullar o'tkazish, fuqarolarning muammolarini joyida hal etish yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, viloyat prokurori tomonidan har hafta sayyor qabul o'tkazilib, barcha tuman (shahar)lar to'liq qamrab olindi.

Xususan, kelib tushgan 1 432 ta murojaatlarning 1 134 tasi qanoatlantirilgan, 267 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berilgan, 14 tasining ijrosi nazoratga olingan.

Murojaatlarni o'rganish davomida qonun ustvorligi qat'iy ta'minlanib, 12 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilgan, sud va boshqa organlarning 4 ta asossiz qarorlariga nisbatan protestlar keltirilgan.

Misol uchun, Kadastr agentligi Jalaquduq tumani bo'limining qarorlari bilan fuqaro F.Mirakmedov, U.Djabbarova va N.Majitovalarga nisbatan MJtKning 60-moddasi 2-qismiga asosan 9 375 000 so'm miqdorida ma'muriy jarima jazosi qo'llanilgan bo'lsada, o'rganishda qaror asossiz va barvaqt qabul qilinganligi aniqlanib, qarorni bekor qilish yuzasidan protest keltirildi.

Shuningdek, Qo'rg'ontepa tumanida tikuvchilik faoliyatini kengaytirib, tadbirkorlik qilish maqsadida kredit olishda amaliy yordam so'rab kelgan A.Axmedov, B.Qo'chqarova, O.Qo'shaqov, A.Zulunov va M.Yuldashevlarga 50 mln. so'mdan pul mablag'lari ajratildi.

Bu kabi tadbirlar davom ettirilmoqda.

S.REJABBOEV,
Andijon viloyat prokuraturasi bo'lim boshlig'i.

HUJJATLARNING BIR TILDAN BOSHQA TILGAN TO'G'RI TARJIMA QILINGANLIGI SHAHODATLASH

Notarius, basharti u tegishli tillarni bilsa, bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi.

Agar notarius tegishli tillarni bilmasa, tarjima tarjimon tomonidan qilinishi mumkin, notarius uning imzosi haqiqiyligini shahodatlaydi.

Tarjima notariusga ma'lum bo'lgan va tegishli tilni bilgan tarjimon tomonidan qilinishi kerak. Tarjimonning tegishli tilni bilishi uning diplomi yoki maxsus ma'lumotga ega ekanligi haqidagi sertifikat yoxud tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Mazkur notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaro quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O'zbekiston fuqarolarining shaxsi - O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo'mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolarining shaxsi - ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro'yxatga olinishi lozim) yoki O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O'zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditastiya kartochkasi;

fuqaroligi bo'lmagan shaxs uchun - O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilish kerak Hujjatni asl nusxasi.

Notarial harakatni (bitimni tasdiqlash, nusxalarning va shu kabilarning to'g'riligini shahodatlash) amalga oshirish paytida notarial harakatlarni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxslarning (ulardan birining) iltimosiga ko'ra ayni vaqtda boshqa tilga tarjimasi ham qilinadigan bo'lsa, tarjima asl nusxa bilan bir varaqda, ya'ni ikkala matn tik chiziq bilan bo'lingan varaqda yonma-yon joylashishi, asl matn chap tomonda, tarjima matni esa o'ng tomonda bo'lishi kerak. Bunda hujjatning butun matni va muhr ham tarjima qilinadi.

Agar tarjima tarjimon tomonidan qilinsa, uning imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi hujjatning tarjima matni tagiga qo'yiladi. Hujjatni imzolovchi shaxslar hujjatning asl matni va tarjima qilingan matni tagiga o'zlarining familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilgan holda imzo qo'yadilar. Bunda hujjatning tarjima matnidagi ularning imzolari tarjimon imzosidan keyin qo'yiladi. Notariusning tasdiqlovchi yozuvi hujjatning asl matni va tarjima matni tagiga qayd etiladi.

Malikaxon MAMARASULOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

FUQARONING TIRIK EKANLIGI FAKTI QANDAY TASDIQLANADI?

Faoliyatimiz davomida turli xil notarial harakatlarni amalga oshiramiz.

Ulardan masalan meros ishi, oldi-sotdi shartnomalari, hujjatdagi imzoning to‘g‘riligini tasdiqlash kabi xizmatlarni amalga oshirishni so‘rab tez-tez murojaatlar bo‘lib turadi. Lekin ayrim notarial harakatlar juda kamdan-kam amalga oshiriladi.

Ana shunday notarial harakatlardan biri fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlashdir.

O‘zbekiston Respublikaci "Notariat to‘g‘risida"gi Qonunning 69-moddasiga ko‘ra, notarius fuqaroning tirik ekanligi faktini uning shaxsiy iltimosiga binoan va uning ishtirokida tasdiqlaydi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Voyaga yetmagan shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar), shuningdek uni o‘z homiyligiga olgan tashkilotning yozma iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaro quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;

16 yoshga to‘lmagan fuqarolarning shaxsi - tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolarining shaxsi - ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditastiya kartochkasi;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun - O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Voyaga yetmagan shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar), shuningdek uni o‘z homiyligiga olgan tashkilotning yozma iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi:

Bunday vakolatini tasdiqlovchi hujjat.

Notarius murojaat qilgan shaxsga fuqaroning tirik ekanligi holatini tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

Alisher AXMADJONOV,
Shahrixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

ER-XOTINNING UMUMIY MOL-MULKIDAGI ULUSHGA MULK HUQUQI TO‘G‘RISIDA GUVOHNOMALAR BERISH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnomalar berish tartibi notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga asosan quyidagicha tartibda amalga oshiriladi: Notarius er-xotinning yozma arizasiga muvofiq ulardan biriga yoki har ikkisiga nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma beradi.

Ushbu guvohnoma er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida ularning mavjud umumiy mulki hisoblangan mulkigagina beriladi. Notarius tomonidan er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnomani berish paytida nikoh tuzilganligini hamda mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risida qonunining 63-modda. Marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) arizasiga ko‘ra umumiy mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma berish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi. Er yoki xotindan biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) yozma arizasiga ko‘ra meros ochilgan joydagi notarius tomonidan beriladi va merosni qabul qilib olgan merosxo‘rlar bu xususida xabardor qilinadi. Xabarnomada er-xotinning ulushiga mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma berilgan umumiy mulk ko‘rsatiladi, merosxo‘r norozi bo‘lgan taqdirda, ushbu masala bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqi unga tushuntiriladi. Shuningdek, xabarnoma pochta orqali yuboriladi. Merosxo‘rlar notarial idoraga kelganlarida esa notarius ularni o‘z hissasini talab qilayotgan er yoki xotinning yozma arizasi bilan tanishtiradi.

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinga (erga) nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkning yarmisi uchun berilishi mumkin. Merosni qabul qilib olgan merosxo‘rlarning yozma arizasiga ko‘ra va marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) roziligi bilan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnomada vafot etgan erning (xotinning) ham umumiy mol-mulkdagi ulushi belgilanishi mumkin. Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma matnida mol-mulkning to‘liq tavsifi ko‘rsatiladi.

Rabixon NOSIROVA,
Buloqboshi tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

YURIDIK SHAXSNING RAHBAR ORGANI TOMONIDAN QAROR QABUL QILINGANLIGI FAKTINI TASDIQLASH

Bugungi kunda barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda. Notariat sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir necha bosqichli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, notariusga murojaat qilayotgan fuqarolarni ovora qilmaslik, notariat sohasida qonuniylikni ta'minlash uchun sohaga axborot texnologiyalari keng joriy etildi.

Sohaviy qonunlarga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Ana shundaylardan biri Yuridik yordam va huquqiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan "O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonundir. Mazkur qonunga ko‘ra, "Notariat to‘g‘risida"gi qonunga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jumladan, "Notariat to‘g‘risida"gi qonunga 70-1-modda "Yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash" qo‘shildi. Mazkur moddaga ko‘ra, notarius yuridik shaxsning rahbar organi yig‘ilishini chaqiruvchi organning yoki shaxsning iltimosiga ko‘ra ushbu yig‘ilish o‘tkazilishi chog‘ida hozir bo‘ladi va yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash to‘g‘risida hamda ushbu qarorni qabul qilish chog‘ida hozir bo‘lgan ishtirokchilarning (akstiyadorlarning) tarkibi haqida guvohnoma beradi.

Notarius yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini belgilash uchun yuridik shaxsning huquq layoqatini tekshiradi, yuridik shaxs rahbar organining qaror qabul qilish borasidagi vakolatini, yig‘ilishda kvorum mavjudligini va ovozlarni sanab chiqish asosida qaror qabul qilish uchun kerakli ovozlar soni mavjudligini qonunchilikka va yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq aniqlaydi.

Sarvarbek SALOMOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

IJARAGA BERUVCHINING TALABI BO‘YICHA MULK IJARA SHARTNOMASINI MUDDATIDAN OLDIN BEKOR QILISH MUMKINMI?

Mol-mulkini ijaraga berish huquqi shu mol-mulk egasiga tegishli bo‘ladi. Qonun yoki mulkdor tomonidan mol-mulkni ijaraga berish vakolati berilgan boshqa shaxslar ham ijaraga beruvchi bo‘lishlari mumkin.

Mulk ijarasi shartnomasi bir yildan ortiq muddatga mo‘ljallangan bo‘lsa, taraflardan birontasi yuridik shaxs bo‘lgan hollarda esa, muddatidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi shart.

Ko‘chmas mulk ijarasi shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Mulk huquqining kelgusida ijarachiga o‘tishini nazarda tutuvchi mulk ijarasi shartnomasi, bunday mulkning oldi-sotdi shartnomasi uchun nazarda tutilgan shaklda tuziladi.

Mulk ijarasi shartnomasi shartnomada belgilangan muddatga tuziladi.

Agar mulk ijarasining muddati shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi. Bunda taraflardan har biri boshqa tarafni bir oy oldin, ko‘chmas mulk ijarasida esa -- uch oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, istagan paytda shartnomadan voz kechishi mumkin.

Qonunda mulk ijarasining ayrim turlari uchun, shuningdek mol-mulkning ayrim turlarini ijaraga olish uchun eng ko‘p (oxirgi) muddatlar belgilab qo‘yilishi mumkin. Bunday hollarda, basharti ijara muddati shartnomada belgilangan bo‘lmasa va qonunda belgilangan oxirgi muddat tugagunicha taraflardan hech qaysisi shartnomadan voz kechmasa, oxirgi muddat o‘tishi bilan shartnoma bekor bo‘ladi. Qonunda belgilangan oxirgi muddatdan ortiq muddatga tuzilgan bunday mulk ijarasi shartnomasi oxirgi muddatga teng muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Ijaraga oluvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun haqni o‘z vaqtida to‘lab turishi shart.

Mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lash tartibi, shartlari va muddatlari mulk ijarasi shartnomasi bilan belgilanadi. Bular shartnomada belgilanmagan hollarda odatda xuddi shunday mol-mulkni o‘xshash holatlarda ijaraga berishda qo‘llaniladigan tartib, shartlar va muddatlar belgilangan deb hisoblanadi.

Agar mulk ijarasi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mol-mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq miqdori shartnomada belgilangan muddatlarda, biroq bir yilda ko‘pi bilan bir marta taraflarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara haqini to‘lash muddatlari ijaraga oluvchi tomonidan jiddiy buzilgan taqdirda, ijaraga beruvchi undan ijara haqini muddatidan oldin, ijaraga beruvchi belgilagan muddatda to‘lashni talab qilishga haqli.

Mulk ijarasi shartnomasi ijaraga beruvchining talabi bilan sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar ijaraga oluvchi:



ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramasdan mol-mulkdan shartnoma shartlarini yoki mol-mulkning vazifalarini jiddiy ravishda buzgan yoxud bir necha marta buzgan holda foydalansa;

mol-mulkni jiddiy yomonlashtirsa;

shartnomada belgilangan to‘lov muddatini ketma-ket ikki martadan ortiq buzib, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lamasa;

qonunchilikka yoki shartnomaga muvofiq kapital ta'mirlash ishlarini bajarish ijaraga oluvchi zimmasidagi majburiyat bo‘lgan hollarda shartnomada belgilangan muddatlarda, shartnomada bunday muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda mol-mulkni kapital ta'mirlashni amalga oshirmasa.

Mulk ijarasi shartnomasiga muvofiq ijaraga beruvchining talabi bilan shartnomani muddatidan oldin bekor qilishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini yozma ravishda ogohlantirganidan va unga o‘z majburiyatlarini bajarish uchun imkoniyat berganidan keyingina shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishini talab qilishga haqli.

Baxodir KAMALOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

NOTARIUS MEDIATOR VAZIFASINI QANDAY BAJARADI?

Mediastiya - nizoni xolis shaxs (mediator) ishtirokida hal qilish usulidir.

Mazkur tamoyil faqat da'voni sudga topshirishgacha amalga oshirilishi mumkin, ammo keyinchalik sud instanstiyalariga murojaat qilishni istisno qilmaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mediastiyaga o‘xshash yarashtiruv prosteduralari turli nizolarni hal etishda qo‘llanib kelinadi. Jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan nizolashayotgan taraflarni, xususan, qo‘shnilar o‘rtasidagi nizolarni, oilaviy nizolarni yarashtirish faoliyatini ham mediastiyaning bir shakli sifatida ko‘rish mumkin. Jamiyatimizda avvaldan mahalla raislari qo‘shnilar, oila a'zolari, er-xotin o‘rtasidagi nizolarni hal etish vazifasini, ya'ni mediator vazifasini bajarishgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 sentyabrdagi PF-5816-sonli Farmoniga asosan 2020 yil 1 yanvardan boshlab notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, shu jumladan mulkiy va meros masalalarida mediator vazifasini bajarishi yangi notarial xarakat sifatida joriy etildi.

Notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan mulkiy va meros masalalari bo‘yicha o‘zaro maqbul qaror qabul qilish uchun taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida nizoda mediator sifatida ish yuritadi. Notarius faqat notariuslar tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo‘yicha mediator vazifasini bajaradi. Taraflar va mediator mediastiya ishtirokchilari hisoblanadi. Jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mediastiya taraflari bo‘lishi mumkin.

Notarius asosan quyidagi nizolar bo‘yicha:

Oilaviy nizolar (er-xotinning mol-mulkini bo‘lish);

Meros bilan bog‘liq nizolar (meros mol-mulkini taqsimlash, merosxo‘rlar o‘rtasida ulushlarni bo‘lish va boshqalar);

Boshqa nizolar (pul majburiyatlari, mulkni topshirish majburiyatlari, qarz majburiyatlari, garov munosabatlari bo‘yicha majburiyatlar) mediativ kelishuvni tasdiqlaydi:

Mediastiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun taraflar o‘zaro kelishuvga ko‘ra notarial harakatni amalga oshirgan notariusga yoki boshqa notariusga murojaat qilishi mumkin. Manfaatdor taraf nizoning ikkinchi tarafiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmunini izohlagan xolda notariusga kelishuv tartib-taomilini qo‘llash haqida ariza bilan murojaat etadi. Agar taraflar notariusga nizolashayotgan masala bo‘yicha mediastiyani qo‘llash haqida birgalikda murojaat qilsalar, ular ushbu masala bo‘yicha mediastiya tartib-taomilini amalga oshirishga roziligi haqidagi o‘zlari tuzgan yozma shakldagi kelishuvni notariusga taqdim etishlari kerak bo‘ladi.

Notarius mediativ kelishuvni tasdiqlashdan oldin mediastiya tartib-taomili amalga oshiradi bunda bir vaqtning o‘zida ham taraflarning barchasi bilan, ham taraflarning har biri bilan alohida-alohida uchrashuvlar o‘tkazadi, ularga nizoni hal etishga doir og‘zaki va yozma tavsiyalar beradi, mediastiya boshlanguniga qadar mediastiya taraflariga mediastiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, taraflarning o‘zaro fikr va takliflarini almashishlarini ta'minlaydi, taraflar tomonidan nizoni tartibga solish turini taklif qiladi. Mediastiyani amalga oshirish muddati mediastiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risidagi kelishuvda taraflar tomonidan ixtiyoriy belgilansada lekin bunda muddat o‘ttiz kundan oshmasligi lozim. Agar notarius taraflar tomonidan mediativ kelishuv tuzilsa, nizo xususida o‘zaro maqbul bo‘lgan qarorga erishish imkoniyati bo‘lmasa, mavjud nizo bo‘yicha kelishuvga erishmay turib mediastiyani tugatish to‘g‘risida taraflarning kelishuvi tuzilsa, biror-bir taraf mediastiyani davom ettirishdan voz kechishini ma'lum qilsa, mediastiya tartib-taomilini amalga oshirish muddatlari o‘tsa mediastiyani qo‘llashni tugatadi.

Abrorjon ZAYNOBIDDINOV,
Qo‘rg‘ontepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Махжурий (собиқ Гагарин) кўчаси, 259-уйда яшаб, 2001 йил 5 февраль куни вафот этган марҳума **АЛИМОВА ТУРДИХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шох кўчаси 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2024 йил 23 июнь куни вафот этган марҳум **НОРБОЕВ НАЗИР МАМАЖОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Айланма кўчаси 1-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус О.З.Азимов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Ватан кўчаси, 6-уйда яшаб, 1998 йил 21 февраль куни вафот этган марҳум **КАРИМОВ РАВШАНБЕК**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчаси, 3-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Б.Джалолов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Обод кўчаси, 24-уйда яшаб, 2011 йил 31 декабрь куни вафот этган марҳума **ТАШМАТОВА ЗУЛЬФИЯХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Мустақиллик шох кўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Қ.Э.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Холботиров кўчаси, 41-уйда яшаб, 2023 йил 25 июнь куни вафот этган марҳум **YULDASHEV SHUKURILLO KORASHEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Мусаев кўчаси, 1/А-уй, 75-хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Ш.Сабирова нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Шаҳрихон кўчаси, 57-уйда яшаб, 2022 йил 17 июнь куни вафот этган марҳума **ERGASHEVA XOJALXON XXX**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А. Қаҳҳорий кўчаси, 1А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус К.Ш.Жалолиддинов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 14 март куни вафот этган марҳум **ISMANOV TASHPOLAT AKPAROVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 27 январь куни вафот этган марҳум **ALIMOV GOFUR ABIDOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги яшаб, 2013 йил 15 июнь куни вафот этган марҳум **MIRZAJANOV MULLAJAN,**

Жалақудуқ туманидаги яшаб, 2015 йил 13 октябрь куни вафот этган марҳум **AXMADJANOV ABBOSS,**

Жалақудуқ туманидаги яшаб, 2014 йил 27 август куни вафот этган марҳум **ABDUGANIJONOV MUXTARJON,**

Жалақудуқ туманидаги яшаб, 2000 йил 24 август куни вафот этган марҳум **ЮСУБЖОНОВ СУЛТОН ХХХ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Бобохуросон МФЙ, Тош йўли кўчасидаги уйда яшаб, 1999 йил 24 декабрь куни вафот этган марҳум **ТИЛАВОЛДИЕВ ЎРИНБОЙ,**

Марҳамат тумани, Дукчи Эшон МФЙ, Исломобод кўчасидаги уйда яшаб, 1993 йил 18 май куни вафот этган марҳум **ОРТИКОВ АБДУРАХМОН,**

Марҳамат тумани, Мингтепа МФЙ, Шодиёна кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 25 декабрь куни вафот этган марҳум **ТОШТАНОВ МИРЗОХИД МАШРАПОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Наврўз МФЙ, Истиқбол кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 8 июнь куни вафот этган марҳума **ТОШМАТОВА МАТЛЮБА ХАКИМОВНА,**

Марҳамат тумани, Наврўз МФЙ, Мустақиллик кўчасидаги уйда яшаб, 1993 йил 27 август куни вафот этган марҳум **ИБРАГИМОВ ОЛИМЖОН,**

Марҳамат тумани, Дукчи Эшон МФЙ, Жоме кўчасидаги уйда яшаб, 2006 йил 3 сентябрь куни вафот этган марҳум **ҚУРБОНОВ ДЖУМАБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршох кўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2001 йил 1 декабрь куни вафот этган марҳум **ГАТИН ГАЛИМЗЯН МАТРАЗОВИЧ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2011 йил 1 октябрь куни вафот этган марҳум **МАМАДАЛИЕВ ҚОБУЛЖОН БОЗОРОВИЧ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2020 йил 18 октябрь куни вафот этган марҳума **МАМТАЛИЕВА ЗИЁДАХОН СОБИРЖОНОВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2022 йил 10 февраль куни вафот этган марҳум **МАХАММАДЖОНОВ УЗАКБОЙ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2024 йил 6 май куни вафот этган марҳум **КАРИМОВ БАХАДИР ИСМАИЛЖАНОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.У.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Ҳонобод шаҳри, Хидирша МФЙ, Баҳши кўча, 2-кўча, 5-уйда яшаб, 2024 йил 17 февраль куни вафот этган марҳума **ABDUKARIMOVA BAXTIGUL JUMABOEYNA,**

Ҳонобод шаҳри, Фитрат МФЙ, Обод кўчаси, 139-уй, 25-хонадонда яшаб, 2024 йил 13 декабрь куни вафот этган марҳум **SATIMKULOV ISAKJAN ISRAILJANOVICH,**

Ҳонобод шаҳри, Боғи баланд, 22-уйда яшаб, 1993 йил 17 июль куни вафот этган марҳум **ДАВРОНОВ НАЗИР**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Ҳонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Зулунов нотариал идорасига,

Бўстон туманида яшаб, 2024 йил 17 сентябрь куни вафот этган марҳум **КУЛДАШЕВ МАХМУД РАСУЛОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Бўстон тумани, Тараққиёт кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Мўйдинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Бешмаҳалла МФЙда яшаб, 2023 йил 22 октябрда вафот этган марҳум **MIRZARAIMOV YULDASH,**

Шаҳрихон тумани, Бешариқ МФЙда яшаб, 2024 йил 20 майда вафот этган марҳум **ИСАҚОВ БАХОДИРЖОН АЗИМОВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Ёшлар МФЙда яшаб, 1985 йил 05 августда вафот этган марҳум **YULDASHEV TASHPO'LAT**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Дўрман МФЙда яшаб, 2023 йил 28 январда вафот этган марҳум **ABDULXAKIM IBRAGIMOV JALOLDINOVUCH,**

Шаҳрихон тумани, Бирлашган МФЙда яшаб, 2024 йил 2 майда вафот этган марҳум **ONOROV MIRODIL MAMITOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

Yoqub Umar o‘g‘li.

O‘N DOLLAR



(HIKOYA)

Tez-tez xorijga chiqib, yurt ko‘rgan har qanday kishi kabi, Qodir ham bojxonada ishlagan odamlarning fe'li-xo‘yi va xatti-harakatlaridan o‘sha mamlakat haqida haqiqatga yaqin xulosa chiqara olardi. Bojxona xizmatchisining qovog‘i soliq, nazari muzday sovuq, bezovta bo‘lsa, bu: "Oyog‘ingni o‘ylab bos va hushyor bo‘l! Bu mamlakatda shoshirtirib qo‘yadigan turli-tuman qiyinchiliklarga duch kelishing mumkin", - degani edi. Xodimlar ochiq yuzli, xushfe'l va xotirjam bo‘lsa, bu: qonun-qoidalarga amal qilsang, hech muammoga duch kelmaysan, degan ma'noni bildirardi. Shunday ekan, Qodir ham boshqa tajribali kishilar singari, kelgan yurtidagi vaziyatga, yanada to‘g‘rirog‘i, bu yerdagi bojxona xizmatchilari muomalasiga ko‘ra, ish ko‘rishga harakat qilardi. Bir mamlakatga kirishda qoidalarga muvofiq hurmat ko‘rsatgan holda, kiborlarcha xushmuomala bo‘lar, boshqasida esa ishini tezroq bitirish payida shoshayotgan, qo‘pol, baqiroq kishilarga o‘xshab ketardi. Maqsad - hujjatlarni tezroq rasmiylashtirib, bojxona eshigining u tomoniga o‘tib olish.

Tong pallasi.

Quyoshning ko‘z qamashtiradigan porloq nurlari samolyot derazalaridan kirib, ichkarini to‘ldirdi. Samolyot qo‘nish uchun pastlay boshlarkan, quyosh tog‘lar ortida qoldi. Samolyot qo‘ngach, ko‘p o‘tmay tog‘lar ortidan quyosh yana jamolini ko‘rsatdi.

Qodir xorijga, bu mamlakatga birinchi bor kelishi emasdi. Bojxona qaerda ekanini, bu yerda ishlaydiganlar, mamlakatni yaxshi bilardi. Nima qilish, o‘zini qanday tutish kerakligidan xabardor edi. Dastavval, aeroport bojxonasidan o‘tishi, so‘ng tranzit viza bilan boshqa-boshqa ikkita taksiga chiqib, qo‘shni mamlakatga o‘tishi kerak edi. Shu xolos. Juda oddiy. Ammo shunday bo‘lsa-da, "Ko‘raylik-chi, bu gal nelarga duch kelar ekanman?"- deb o‘ylardi.

Aeroport kirishida viza ishlarini rasmiylashtirish tez bitdi. Qo‘shni mamlakat vizasi va u yerda ishlash ruxsatnomasini ko‘rgan mazkur mavqeini pisanda qilmoqchidek, pasport varag‘iga muhrni qarsillatib urdi va qo‘pol bir yo‘sinda uzatdi.

Qodir ma'murga bildirmay bir uh tortib qo‘ydi. "Shu bojxona deganlari yonib ketmasmikan!" - dedi ichida. Endi bir taksi yollab, ikkinchi bojxonaga borishi kerak.

Qodir avval aeroportdan qo‘shni mamlakat bojxonasiga yaqin bekatga borishi, u yerdan boshqa taksiga o‘tirib, yo‘lida davom etishi kerak edi. Ikkinchi taksida qo‘shni o‘lkaning davlat raqami bo‘lishi lozim. Asfalt yo‘l orqali o‘tiladigan barcha bojxonalar yonida har ikki mamlakatga oid avtoulovlar davomi bo‘ladi. Mabodo, taksining raqami borayotgan mamlakatniki bo‘lmasa, yo‘lda duch kelgan yo‘l politsiyachisi to‘xtatib, nazorat bahonasida pora so‘rashi mumkin edi. Qodir uchun g‘oyat mushkul ish edi. Buni u ham o‘zi, ham ro‘parasidagi kishiga nisbatan haqorat deb bilar, qiynalar va xijolat bo‘lar edi.

Aeroport eshigidan chiqmasidanoq ikki kishi: "Taksi kerakmi?" - deb ergashdi. Qodir ularga hech narsa demay tikildi, erta tongdanoq mashinasiga chiqadigan kishining yuz-ko‘zi, qiyofasidan qaysi biriga ishonish mumkinligini bilib olishga urindi. Ikkoviga ham ko‘ngli chopmadi, olg‘a qadam bosdi. Talabgorlar birdan ko‘paydi. Oralaridan xotirjam, o‘rta yoshdan sal o‘tgan, to‘ladan kelgan biriga boshi bilan rozilik ma'nosida ishora qildi.

Taksichi o‘ziga ishongan bir tarzda oldidagi ikkita yigitni qo‘llari bilan chetlatib, Qodirning yuklarini oldi.

- Mashina anavi yerda, qani marhamat, - dedi.

- Boshqalar yo‘lovchilar atrofida o‘ralashar ekan, ayni chog‘da ko‘z qiri bilan Qodirning taksichi bilan savdolashishini kuzatib turishardi. Agar ularning savdosi pishmasa, darhol orqaga qaytib, yo‘lovchini ilib ketishni ko‘zlashardi.

- Qayoqqa borasiz, aka?

Bu savdoni o‘z foydasiga hal qilish uchun ishlatiladigan usul edi.

- Xonchayirga, - dedi Qodir.

- Yuzga ketamiz.

- Qirq bo‘lar.

- Ammo, aka, hali kecha-ku, kechki narx shuncha bo‘ladi.

Qodir bir qulochcha ko‘tarilgan oftobga qaradi.

- Mabodo, sen uchun yana bir quyosh chiqmasa, allaqachon kunduz bo‘ldi. Qirq yetadi.

- Bo‘pti, aka, ellik, - dedi taksichi.

Qodir mayli degan ma'noda bosh irg‘adi. Mashina Yevropadan xorijga qanday chiqarishgani noma'lum eski "Mersedes" edi.

Horg‘in motor zo‘rg‘a guldiradi.

- Qo‘shni tomongami, aka? - dedi taksichi.

Xonchayir ikki mamlakat orasida yo‘lovchi tashiydigan taksichilar to‘xtaydigan bekat edi. Tajribali taksichi yo‘lning davomini qiynalmay topgan edi.

- Ha, - dedi Qodir.

- Ishonchli og‘aynilarim bor, aka, ularning mashinasiga o‘tqazib yuboraman.

- Bo‘ladi, lekin mashinaning raqami ularniki bo‘lsin.

Non pulini boshqalardan ilib ketishga muvaffaq bo‘lgan bu odam Qodirga yaxshilik qilmoqchimi yoki qo‘shni taksichidan dallollik puli olmoqchimi? Qodir xayoliga kelgan bu savolga javob axtarib ham o‘tirmay, quyosh nuriga cho‘mgan qirlarni tomosha qila boshladi.

Ikkita yo‘l nazorati postidan o‘tdilar. Har gal politsiya mashinasini ko‘rganida bezovta bo‘lgan taksichi o‘z tilida "poraxo‘rlar" deya so‘kinib qo‘yardi.

- Faqat ular poraxo‘rmi? - dedi Qodir kulimsirab.

- Qaydan bilay, aka, bizni o‘rtaganlari uchun shularni bilamiz.

Keyin taksichi bolalari haqida so‘zlay boshladi.

Xonchayirda boshqa taksiga o‘tish tez hal bo‘ldi. Aeroportda topilgan mashina yangiroq, haydovchisi ham ishonchli odamga o‘xshardi. Qisqagina savdolashuvdan so‘ng yuklar bu mashinaga joylashtirildi. Qodir haqini to‘lab, o‘rta yashar shofyor bilan xayrlashdi.

Qo‘shni bojxonaga tez yetib borishdi. Bojxona tinch edi. Shofyor:

- Men mashinaning o‘tish hujjatlarini rasmiylashtiraman, ungacha sen ham ishingni bitir. U tomonda ko‘rishamiz, - deb Qodirni tushirdi.

Qodir yangi qurilgan bojxona binosiga kirdi. Pasport nazorati darchasini izladi. Xona bo‘m-bo‘sh. Ertalab endi ish boshlagan ma'murlar atrofga tetik boqishardi. Qodirning ko‘zlari darcha orqasida o‘tirgan yosh ma'murning ko‘zlari bilan to‘qnashdi. Qodir pasportini uzatdi.

Ma'mur pasportni tez-tez varaqlab, avvalo, suratli varaqni topdi. Bir suratga, bir Qodir yuziga tikildi. Pasport nazoratidan o‘tishning eng bezdiradigan oni edi bu. Ma'mur shubhali bir tarzda yana suratga va keyin Qodirning yuziga diqqat bilan tikildi. U bu lahzani ataylab uzaytirayotgandek tuyuldi. Surat egasiniki ekaniga ishonch hosil qilgach, mamlakat vizasini topish uchun yana sahifalarni varaqlay boshladi.

Qodir indamay kuzatib turardi.

Ma'mur viza sahifasini topdi. Shoshmay vizani tekshirdi. Oldidagi kompyuter tugmalariga qo‘l uzatarkan:

- Ishlagani kelyapsanmi? - deb so‘radi.

- Ha, - dedi Qodir. - Qurilish shirkatining boshlig‘iman.

Qaysi sohada va qanday vazifada ishlashini so‘ramasidanoq aytgan edi. Baribir so‘ragan bo‘lardi.

- Mudirmisan?

- Yo‘q, mudir o‘rinbosariman.

Bu orada u Qodirning ismi sharifini yozayotgan edi.

- Unday bo‘lsa yuz dollar ber.

- Yaxshi, lekin barcha hujjatim to‘g‘ri-ku, nega yuz dollar berishim kerak?

Qodirning gaplarini eshitmaganday tugmalarni bosib, pasport nomerini yozishda davom etdi.

- Mamlakatimizda necha yildan beri ishlayapsan?

- To‘rt, - dedi Qodir.

- Tilimizni yaxshi o‘rganib olibsan.

Qodirning ajnabiy ekanligini bilmaganlar toza so‘zlagani uchun uni shu yerlik deb o‘ylardilar.

- Til kursida o‘qidingmi?

- Ha, kelgan yilim olti oy til darsi o‘qidim.

Ma'mur bosh ko‘tarmasdan:

- Unday bo‘lsa, ellik dollar ber, - dedi.

Xuddi, Qodir o‘z tilini yaxshi gapirishidan mamnun bo‘lib, narxni arzonlashtirayotgandek edi.

- Yaxshi, lekin, nima uchun berishim kerak, menga yordam qiladigan biron ish yo‘q-ku. Mening barcha hujjatim to‘g‘ri bo‘lsa.

Yana u beparvolarcha kompyuter tugmalarini bosishda davom etdi.

- Ishlash uchun ruxsatnomang bormi?

- Bor.

- Yoningdami?

- Ha.

Ruxsatnomani ko‘zdan kechirgach, uni pasportning yoniga qo‘yib, tortmadan muhrni qidira boshladi. Yana boshini ko‘tarmay:

- Mayli, bo‘lmasa yigirma besh dollar ber, - dedi.

Qodir kulishini ham, achchiqlanishini ham bilolmadi.

- Nega berishim kerak, ayt shuni.

Ma'mur muhrni topib, oldin bo‘yoqqa surkadi, so‘ng shiddat bilan pasportga urdi.

Ish ruxsatnomasini pasport orasiga joylashtirarkan:

- Kel, bir choy ichaylik, - dedi.

Taklifni rad etishga vaqt ham qoldirmay, o‘rnidan turgan ma'mur pasport ushlagan qo‘li bilan orqasidan ergashishini ishora qildi.

Dahliz orqasidagi xonada pasportni qaytardi. Suhbatni Qodir o‘z tilini qanchalik yaxshi bilishidan boshladi, so‘ng qurilish sohasidagi ishlarga o‘tdi. Choy keldi. Ma'mur choyidan bir xo‘plam yutgach:

- Bo‘pti, o‘n dollar ber, - dedi.

Qodir esa hayron bo‘ldi. Tashvishi bitgan, pasporti cho‘ntagida. Endi bu o‘n dollar degani nimasi?

- Bo‘pti, beraman, lekin nima uchun berishim kerakligini ayt.

Ma'mur Qodirning yuziga tikilib:

- Ey, Qodirbey, sen bermasang, boshqasi bermasa, unda men ishga joylashish uchun bergan pulni kimdan olishim kerak?

Qodir taxtaday qotib qoldi. Eshik tomonga tikilgan ko‘yi, hamyonini chiqardi va o‘n dollar uzatdi. Choyini oxirigacha ichmayoq, oyoqqa qalqdi.

Ma'mur eshikka qadar uzatdi. Eski tanishlarday xayrlashdilar.

O‘zini kutayotgan taksini topdi, yo‘lga tushdilar.

Qodir nazorat postlarida to‘xtatsalar, o‘n dollarni taksichiga to‘lattirish yo‘lini o‘ylay boshladi.

Turkchadan Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi

Sharq yulduzi" jurnalining 2010-yil, 5-sonidan olindi.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo’limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 10.01.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 10.01.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000104. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li